

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM BERISH USUL VA USLUBLARI

**Abdug'aniyeva Mavjuda Akram qizi**

Navoiy Davlat Pedagogika instituti 1-kurs magistranti

### *Annotatsiya:*

*Ushbu maqolada tabiat va u bilan bo'lgan insoniyat munosabati 7 yoshdan 70 yoshga qadar qay tarzda amalga oshirilishi kerak ekanligi, inson hayotida mavjud bo'lgan tabiatning har bir qismi sanalmish daraxtlar, qushlar, tog'-toshlarga nisbatan umr davrlariga mos ravishda tabiat-inson aloqasini yo'lga qo'yilishi va buni oilada ta'lim va tarbiya uyg'unligini olib borgan holda amalga oshirish masalalari keng yoritilib berilgan. Xususan, ushbu maqolada amaliyot tariqasida olib borilgan bir qancha tadqiqotlar orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning atrof-muhitga munosabatini ijobiylashtirish uchun bir qancha masalalar va holatlar ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim yoshi, ekologik ta'lim va tarbiya, atrof-muhit muhofazasi, axborotdan xabardorlik, muhit moslashuvi, element, o'quv jarayoni, kontekst, muhit yaratuvchisi, muhit foydalanuvchisi.*

### *Abstract:*

*In this article, how nature and human relations with it should be carried out from 7 to 70 years old, every part of nature that exists in human life, such as trees, birds, rocks, and nature-human according to the life cycles. The issues of establishing communication and implementing it while maintaining the harmony of education and upbringing in the family are widely covered. In particular, in this article, a number of issues and situations to improve the attitude of children of preschool age to the environment through several researches carried out in practice have been considered.*

***Key words:** Preschool age, environmental education and upbringing, environmental protection, information awareness, environment adaptation, element, educational process, context, environment creator, environment user.*

### **Kirish:**

Ekologik vaziyat muayyan o'ziga xos xususiyatga ega. Inson tabiat salohiyatidan ongsiz ravishda emas, balki muvozanatni saqlagan holda foydalanishi kerak. Ekologik tafakkur insonning tabiat bilan munosabatlari sohasidagi bilim va e'tiqodlarni birlashtiradi. Atrof-muhit haqidagi bilimlar insonni tabiat bilan chambarchas

bog‘liqligini, uni muhofaza qilish obyektiv zarurat ekanligini, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrashga undaydi.<sup>1</sup>

Biz insonlar bu yorug‘ olamga kelarkanmiz dunyo sir-u sinoatlari bilan asta sekinlik bilan tanishib boramiz. Bizni o‘rab turgan atrof-muhit, olam, insonlar jamiyati, hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi ta’sirlarini qabul qilamiz va albatta, shu bilan birga ularga ham o‘z ta’sirimizni o‘tkazamiz. Bu orqali biz o‘z navbatida ma’lum bir hayot sharoitini o‘zimizga qabul qilamiz va tashqi muhit bilan ta’sirlashamiz. Biroz yuqorida bayon qilganimizdek, atrof muhit bevosita inson bilan, insoniyat esa bevosita atrof muhit bilan chambarchas bog‘liq.

### **Adabiyotlar tahlili:**

Barchamizga yaxshi ma’lumki, jamiyatda ekologik madaniyatni va ekologik ta’lim-tarbiyani oshirish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Biz farzandlarimizga, bolalarimizga tabiat haqidagi bilimlarni ular maktabga chiqqanlaridan keyin emas, aksincha, undan avvalroq oila muhitida berishga, bolaning dunyo, tabiat to‘g‘risidagi bilimlarini kengroq holatda yoritishga harakat qilishimiz lozim. Bugungi kunda butun dunyoda ekologik ta’lim birinchi o‘rinda turadigan dolzarb mavzu deya qaralmoqda va bolalarga ularning o‘z tillari “bola tili” da ta’limotlar berib kelinmoqda. Ekologik ta’lim to‘g‘risida gapirilganida bir biriga o‘zaro bog‘liq va shu bilan birga bir biridan o‘zaro mustaqil holda ishlaydigan ikki jarayon haqida alohida ta’kidlash lozim. **Birinchi jarayonda**, ekologiya haqidagi nazariy bilimlar asosida insonning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirishdagi amaliy faoliyatini tashkil etuvchi ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, texnik va texnologik taraqqiyotni tushinadigan bo‘lsak, **ikkinchi jarayonda**, ekologik ta’lim va tarbiya davlat muassasalari yordamida tarixiy ekologik tajribalar asosida odamlarning ekologik ongini, tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirish. Bu hududlarning global manfaatlar asosida uyg‘un rivojlanishi asosida faol ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilishda katta rol o‘ynaydigan jarayon tahlil qilinadi.

“Umuman olganda, jamiyatning tabiatga munosabatini o‘zgartirish ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiyaning barcha sohalari, uslub va vositalarini uyg‘un rivojlantirish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Ekologik vaziyat muayyan o‘ziga xos xususiyatga ega. Inson tabiat salohiyatidan ongsiz ravishda emas, balki muvozanatni saqlagan holda foydalanishi kerak. Ekologik tafakkur insonning tabiat bilan munosabatlari sohasidagi bilim va e’tiqodlarni birlashtiradi. Atrof-muhit haqidagi bilimlar insonni tabiat bilan

---

1 Alieva O.A., Loginova M.N., Muravieva E.A., Yaroslavtseva N.A., Yaroslavtsev A.S. ZAMONAVIY EKOLOGIK TA'LIM // Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2010 yil.

chambarchas bog'liqligini, uni muhofaza qilish obyektiv zarurat ekanligini, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'simlik va hayvonot dunyosini asrashga undaydi. O'quvchilar tomonidan ajratilgan hududni obodonlashtirish, daraxt ekish va ko'chatlarni o'z vaqtida parvarishlash, qushlar uchun uya qurish, buloqlar, ko'llar, ariqlarni chiqindidan tozalash ekologik ta'limning muhim shakllari hisoblanadi. Natijada, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, yoshlarda zarur ekologik, huquqiy, axloqiy-estetik qarashlar shakllanadi. Talabalar tabiatdagi insonning o'rni va rolini, o'z ona shahri yoki qishlog'i nomidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi tadbirlarning ahamiyatini, havo, ko'llar va daryolarni saqlash masalalarini hal qilishda faol hayotiy pozitsiyani ko'rsatishning dolzarbligini tushunadilar. Aynan yosh avlodning tabiatni muhofaza qilish sohasidagi maqsadli amaliy faoliyati shaxsning ekologik ongini shakllantirishning muhim shartidir. Mafkuraviy tarbiyaning rivojlangan ma'naviyat bilan uyg'un rivojlanayotgan yo'nalishlarida ekologik mafkura, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rin tutadi.

Ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda nazariy bilimlar berish bilan birga madaniy-ma'rifiy ishlarning barcha samarali shakl va usullaridan, xususan, ommaviy axborot vositalari, og'zaki, ko'rgazmali va texnik vositalar imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Axir, ekologik targ'ibot nafaqat aholining ayrim toifalari ongiga ta'sir qilishi, balki barcha aholini, shu jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni ham qamrab olishi kerak. Bu hamma uchun tushunarli bo'lishi kerak, vizual va ommaviy. Tabiat, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqidagi ilmiy-ommabop ma'lumotlar yoshlarni rag'batlantirishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga intilishini tarbiyalashi kerak. Ekologik bilim insoniyatning tez o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizning kamayib borayotgan tabiiy resurslari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun ham zarurdir. Agar inson o'zini tabiatning bir qismi deb his qilmasa, u vayron bo'ladi, yirtqichlarning qirg'in qilish sharoitida halok bo'ladi. Tabiatdagi barcha tirik mavjudotlar inson omilidan aziyat chekadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, har bir insonda o'z ona tabiatiga, atrof-muhitga, har bir organik mavjudotga oqilona munosabatni shakllantirish eng muhim masaladir. Ekologik madaniyat hech qanday texnologiya bilan taqqoslanmaydigan ulkan samara beradi. Bu vazifalar uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg'unlashgan. Ular insonning tabiatga munosabatini tubdan o'zgartirishni ta'minlaydi. Mutaxassislar o'z hisob-kitoblarida: agar ekotizimga nisbatan shafqatsiz munosabat o'zgarmasa, 30-40 yildan keyin insoniyat halokatli oqibatlariga duch keladi. Shu bois oila va mahallada ekologiya muammolariga e'tiborni kuchaytirish, atrof-muhit holatidan aholining xabardorligini oshirish, bu boradagi milliy ma'ruzalar va tahliliy ma'ruzalarni muntazam chop etib borish nomzodning

Saylovoldi dasturining muhim bandi sifatida belgilangan. Ular jamiyatning har bir a'zosida tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan korxonalarining ekologik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ishlarda har bir fuqaroning ishtirokini ta'minlash, ularni amalga oshirishga e'tiborni yanada kuchaytirishni nazarda tutadi. Sayyoramizning kelajagi yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Yoshlarda ekologik bilim, tafakkur va madaniyatni shakllantirgan holda ekologik ta'lim va tarbiyani tizimli tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda ekologiya sohasini yanada takomillashtirish, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Tabiatga muhabbat va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga tayyorlikni shakllantirish bugungi kunda bizning oldimizda turgan eng muhim vazifamizdir.”<sup>1</sup>

### **Natijalar:**

“Ekologik madaniyat -bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini: 1) axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof- muhitni hissiy bilish jarayoni atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyoratlik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi; 2) ekologik mas'uliyatlilik shaxsda munosabat va mas'ullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi; 3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof- muhitdagi xatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Ekologik ma'naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan

<sup>1</sup> Nosirjon Aminov.Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi.

rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan ziyrak bo'lishi, tabiatga qiziquvchan bo'lishi, tabiat go'zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat'iyatli bo'lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko'rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g'oyalar, ekologik bilimlarni targ'ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me'yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo'lishi, o'zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g'ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof - muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, o'zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim".<sup>1</sup>

Insoniyat, kishilik jamiyati

### **Muhokama:**

Ekologik ta'lim va ekologik madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bunday ta'limning asosiy maqsadi atrof-muhit muammolarini izlaydigan va tan oladigan mas'uliyatli shaxslarni tayyorlashdir. Boshqa tomondan, madaniyatning bu turi shunchaki atrof-muhitni himoya qilish yoki ekologik ma'lumotlarni nashr etishni anglatmaydi. Aksincha, qiyinchiliklarni hal qilish uchun odamlarga tanqidiy yo'nalish bo'yicha ta'limga hissa qo'shishdan iborat. Uning bir qancha boshqaruv ko'rsatmalari mavjud bo'lib, ularga xabardorlik, donolik, fazilatlar, ko'nikmalar va hamkorlik kabilar kiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekologik madaniyat - bu bizning atrof-muhit bilan bog'liq yoki unga bog'liq bo'lgan harakatlarimiz orqali ishtirok etishimiz, doimo g'amxo'rlik qilish, saqlash, shuningdek, ba'zi bir noqulayliklarni hal qilish uchun muhim hissa qo'shish uchun ishtirok etishimiz. Biz ekologik muhitni rivojlanishi uchun u quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirishimiz lozim:

- ogohlik, hamdardlik va atrofimizdagi hamma narsaga tegishlilik hissini mashq qilishimiz;

- atrof-muhit va uning resurslarini asrash uchun yaxshi odatlarni shakllantirishimiz;

<sup>1</sup> Elyor Vassiyevning "Ekologik madaniyatni shakllantirish" nomli maqolasidan olindi.

- shaxslarda hamkorlikni rag‘batlantiradigan saqlanish dalillari bilan xabarlarni tarqatishimiz;

- tabiat bilan sog‘lom va ehtiyotkor munosabatni shakllantirishimiz kerak.

### **Muammoning yechimi:**

Ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng tavsiya etilgan usuli – boshlang‘ich ta‘limda o‘qiyotgan bolalarning va ularning faolligini rag‘batlantirish, ularda qiziqish uyg‘otish va atrof-muhitga hurmat bu umumiy afzalliklardan biri ekanligini tushunishdir. Shu sababli ham o‘qitishning ushbu bosqichida ya‘ni maktabgacha yosh davrida yoshlarda ekologik ong shakllanadi. Bundan tashqari, ekologik madaniyatni rivojlantirishga imkon beruvchi harakatlarni tarqatish va rag‘batlantirish butun jamiyatning mas‘uliyati sifatida qaralishi lozim. Shu sababli, quyidagilarni o‘z ichiga olgan ta‘lim loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish juda muhimdir:

- a) to‘g‘ri ovqatlanish va ekotizimni saqlashni targ‘ib qiluvchi ilmiy loyihalarga qiziqish uyg‘otish.
- b) atrof-muhit jihatlari bilan bog‘liq holda tadqiqot, fan va texnologiya mazmunini ishlab chiqish.
- c) atrof-muhitni barqarorlashtirish va muhofaza qilish vazifalarini bajarish imkonini beruvchi ekoturizm oromgohlarini tashkil etish.
- d) atrof-muhitni muhofaza qilishda ijobiy fazilatlarni rivojlantirish uchun tabiiy fanlar va ularning hodisalarini o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash, hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan ekologik buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha harakatlarga e‘tibor berish.
- e) maktab joylashgan jamiyat atrofida atrof-muhitga hurmatni rag‘batlantiradigan amaliyotlarni targ‘ib qilish.
- f) ommaviy axborot vositalari va jamiyat bilan birgalikda talabalar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni tarqatish.

### **Xulosa:**

Biz yuqorida ekologik madaniyat va ta‘lim tizimi to‘g‘risida ko‘pgina fikrlarni ko‘rib chiqdik. Barchasini bir yerda xulosalaydigan bo‘lsak, bolaga hayot ta‘limi va tarbiyasi qay vaqtdan boshlab berila boshlasa, ekologik tarbiya va ta‘limi ham shu yoshdan berilishi lozim. Chunki inson bir kun atrof-muhitga yomon muomalada bo‘lsa tabiat uning javobini oylab, yillab, asrlar davomida bizga yoki bizning avlodimizga qaytarishi mumkin. Ya‘ni inson o‘zidan hozir qoldirayotgan barchasi kelajak avlodga xuddi qoldirgani kabi yetib boradi. Agar biz farzandlarimiz va bizdan keyin bu dunyoga keladigan, yashaydigan insoniyat jamiyatini yaxshi va tabiiy sharoitda yashashlarini istasak, bugun ekologik ta‘lim va tarbiya degan ikki so‘z mohiyatini yaxshigina anglashimiz darkor. Butun dunyo bugungi kunda ekologik ta‘lim

dasturlarini yaratib chiqdi va bolalarga ilk ta'lim bosqichlari uyda va maktabgacha tayyorlov sanalgan ta'lim dargohlarida berishni boshladi. Bunday dasturlar ichida eng ko'zga ko'rinadiganlari quidagilarni keltirish mumkin. Masalan, Latviyada "Yerning do'stlari" nomli dasturning ishga tushirilganligi va bu orqali bugun Boltiq dengiziga tushib, uni ifloslantirayotgan neft oqimining to'xtatilganligi; Norvegiyada o'rmonlarni kesish qat'iyan man etilganligi va benzin yoqilg'isidan tamomam voch kechilganligi (bugungi kunda bu davlatda faqatgina velospedlarda, elektromobillarda va piyodagina yurish mumkin); Lyuksemburg biologik xilma-xillikning 4 strategiyasini yaratgan davlatni va shunga o'xshash ko'pgina jahon davlatlarini namuna sifatida keltirishimiz mumkin. Bugun bizning jannatmakon O'zbekistonimizda ham ekologik ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor berilmoqda. Hatto, ekologik himoya uchun ekologik siyosiy partiyasi ham tashkil etilganligi bizni quvontiradigan holatlardan biridir. Jamiyatimizni, davlatimizni asrab-avaylash har birimizning burchimiz va vazifamizdir. Biz bugun shunday chiroyli davlatda yashayapmizmi, bizdan keyin kelganlar ham shunday go'zalliklar ichida yashashsin va tabiat chiroyidan bahra olsin. Buning uchun siz va bizning faqatgina ekologik tarbiyamizni mustakamlashimiz va yosh avlodga chiroyli o'rnak bo'lishimizning o'zi yetarli.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alieva O.A., Loginova M.N., Muravieva E.A., Yaroslavtseva N.A., Yaroslavtsev A.S. ZAMONAVIY EKOLOGIK TA'LIM // Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2010 yil.
2. Nosirjon Aminov. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosining ma'ruza matni.
3. Elyor Vassiyevning "Ekologik madaniyatni shakllantirish" nomli maqolasidan olindi.
4. <https://www.postposmo.com/uz/atrof-muhit-madaniyati>.
5. <http://akademiyafvv.uz/en/post/gjfyukyujufyumu>
6. <https://uz.warbletoncouncil.org/cultura-ambiental-11745>.